

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
22-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-22**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-22**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлиар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Polvanova Sabohat Jabbarberdiyevna, Turdiyeva Zulkumor Madraxim qizi BIOLOGIYANI FANINI O'QITISHDA LOYIHALASH TEKNOLOGIYASIDAN FAOYDALANISH	7
2. Ruziyeva Ulmasoy Xakimovna BIOLOGIYA DARSLARIDA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH	9
3. Sharifov Ruslan Bobomurod o'g'li, Matkarimova Gulnaz Maqsudjanovna TUT O'SIMLIGI VA UNING DORIVORLIK XUSUSIYATI	11
4. Yusupova Yangiljon Xajibayevna, Begliyev Sanjar Reymbergenovich BIOLOGIK TA'LIMDA O'QITISH MAZMUNI, VOSITA, METOD VA SHAKLLARNING UYG'UNLIGI.....	13



БИОЛОГИЯ ВА ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BIOLOGIYANI FANINI O'QITISHDA LOYIHALASH TEKNOLOGIYASIDAN FAODYDALANISH

Polvanova Sabohat Jabbarberdiyevna
Bog'ot tumani 31-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 035 95 46
polvanova.sabohat_31@inbox.uz

Turdiyeva Zulxumor Madraxim qizi
Xonqa tumani 6-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 433 63 08
t.zulxumor_scool6@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiyani o'qitishda loyihalash texnologiyasining qo'llanilishi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi.

Kalit so'zlar: Biologiya, loyihalash texnologiyasi, tadqiqot, botanika.

O'quvchilar muammolarni muvaffaqiyatli hal etishlari uchun o'qituvchi ularga tegishli ko'rsatmalar berishi, foydalaniladigan manbalarni tavsiya etishi, o'qitishdan ko'zlangan natijaga erishish yo'llarini ko'rsatishi, buning uchun muammoni hal etishda o'quvchilarning faoliyatini loyihalashi lozim. Loyihalash texnologiyasining asosiy g'oyasi amaliy yoki nazariy ahamiyatga molik bo'lgam muammoni hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishdir. Agar nazariy muammoni loyihalash lozim bo'lsa, uning aniq yechimi, agar amaliy muammo bo'lsa, amalyotga qo'llash masalasi bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish lozim.

Loyihalash texnologiyasining asosiy mohiyati ma'lum bit muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning qiziqishlarini orttirish, loyihalash faoliyatini shakllantirish, ularning tegishli bilimlarni egallashlari, fanlararo bog'lanishlarni amalga oshirish sanaladi. Biologiyani o'qitishda o'qituvchi loyihalash texnologiyasidan o'quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda nafaqat darsda o'quv muammolarini hal etishda, balki darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham ijodiy muammolarni hal etishda foydalanish zarur.

Botanika o'quv kursida o'simlik organlarini o'rghanib bo'lgandan so'ng, "O'simlik-yaxlit organizm" mavzusini o'rghanishda o'quvchilarga quyidagi loyihalar tavsiya etiladi:

- Loyiha mavzusi: o'simlik yaxlit organizm;
- Loyihaning maqsadi: o'simlik organlarining tuzilishi va funksiyasini hisobga olgan holda uning yaxlit organizm ekanligini isbotlash;
- Loyihaning mazmuni: o'simliklarning vegetativ va generativ organlarining tuzilishi va funksiyasini qayd etgan holda o'simlik yaxlit organizm ekanligini isbotlang. O'simlik organlari o'rtaсидаги bog'lanishlar aks etgan jadval tuzish va shu asosda fikrlarni qayd etish;

Biologiya o'qituvchisi ushbu loyihalar turidan darslarda foydalanishi mumkin. Misol uyun, Odam va uning salomatligi o'quv kursida "Odaming sutkalik ovqat ratsionida oqsil, yog", uglevodlar miqdori va ulardan ajralib chiqadigan energiya miqdorini aniqlash" laboratoriya mashg'ulotini kichik guruhlardan tashkil etib, topshiriqlar orqali olib borish maqsadga muvofiq. Loyihalar predmeti va mazmuniga ko'ra, bir fan sohasini qamrab olgan loyihalar, fanlararo izlanishini talab etadigan loyihalarga ajratiladi. Bu loyihalarni shallrantirishda o'qituvchi biologiya sohasidagi muammoli, qiyin mavzularni olishi mumkin. Mazkur loyihalar biologiyani o'qitishda tabiiy fanlar, adabiyot, ma'naviyat, madaniyat, san'at va gumanitar fanlar bilan fanlararo bog'lanishnu amalga oshirishga imkon beradi. Loyihalar o'quvchilarda aqliy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish va



rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, loyihalar texnologiyasu o‘quvchilarda ijodiy faoliyatning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1.Tolipova A.T. G‘ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari.- T.: O‘qituvchi. 2002.



BIOLOGIYA DARSLARIDA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Ruziyeva Ulmasoy Xakimovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahri

1-sonli Xorijiy tillarni chuqurlashtirib
o‘qitishga ixtisoslashtirilgan mактабning
biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’limda biologiya fanini o‘qitishda video materiallardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan, shuningdek videomateriallar turlari keltirilgan, qaysi mavzuda qanday videolarni ko‘rish kerakligi to‘g‘risida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: biologiya, o‘quv jarayoni, dars, videomaterial, video, film, malumot, yer, faollik, mavzu, sifat, qiziqish.

Zamonaviy ta‘lim muammolaridan biri o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga qiziqishining sustligidir. Bu, ta‘lim muassasalari uchun umumita‘lim fanlarining o‘qitilishida dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’limda bunday muammolarni yechishda barcha fanlar, xususan biologiya darslarida o‘quvchilarning o‘rganish faolligini oshirish maqsadida videomateriallarni qo‘llash mumkin. Videomateriallarning ko‘rgazmali vosita va qo‘sishma ma‘lumot manbai sifatida qo‘llanilishi, darsni qiziqarli o‘tilishiga va o‘quvchilar ma‘lumotlarni qabul qilishini oshirishga yordam beradi.

Biz quyida o‘quv jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan videomateriallar turlarini keltirib o’tamiz.

1. O‘quv filmlari. Bu umumta‘lim maktablari dasturi asosida tayyorlangan va aniq mavzularga bag‘ishlangan videomateriallar. Ular dars jarayoni bilan uyg‘unlashib, o‘qituvchining hikoyasini to‘ldirishi, fikrlash uchun ma‘lumot berishi mumkin.

2. Ilmiy-ommabop (hujjatli) filmlar. Bu filmlar zamonaviy ilm-fanning eng qiziqarli va dolzarb muammolariga bag‘ishlangan. Ma‘lumot rang-barang va tushunarli tarzda yetkaziladi. Bu materiallarning kamchiligi vaqt borasida uzoq davomiyligida. Shuning uchun o‘qituvchi filmni ko‘rib chiqib, dars mavzusiga taaluqli ma‘lumotlarni ajratib olishi kerak. Qiziqib qolgan o‘quvchilarga filmni uy sharoitida oxirigacha ko‘rib chiqishni va taasurotlarni dars vaqtida o‘rtoqlashishni taklif qilishi mumkin. Hozirgi kunda ilmiy ommabop filmlar turi juda ko‘p va o‘quv jarayonida ularni o‘quvchilarga ko‘rsatish mumkin. Jumladan, “Tug‘ilishdan oldingi hayot” filmi o‘quvchilarga odamzotning qorin bo‘shlig‘ida rivojlanishning asosiy bosqichlarini yoritib beradi. Bu filmni “Inson ontogenezi”, “Reproduktiv salomatlik” darslarida qo‘llash mumkin.

“Qo‘zichoq dolli qanday klonlashtirilgan” filmi qiziqarli va ma‘lumotga boy. Bu materiallarni biz “Tanlash: asosiy usullar va yutuqlar” mavzusida qo‘sishma ma‘lumot sifatida qo‘llaymiz.

“Genetik kasalliklar” filmi “Genetika va inson salomatligi” mavzusida muhim ahamiyatga ega. U o‘quvchilarda katta xissiy portlashni keltirib chiqarib, baxs-munozaraga chorlaydi.

“Bakteriyalar” filmi “Prokariotiv hujayra” mavzusini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladi. Bu videomateriallarda berilgan ma‘lumot, o‘quvchilarda bakteriyalar olami, ularning tuzilishi, tabiat va inson hayotidagi ahamiyati haqida taasurotolarini kengaytiradi.

3. Videolavhalar. Ikki-uch daqiqali qisqa videoroliklar. Bunday videoroliklarni “Hujayra” bo‘limi mazmunini anglab olish uchun namoyish qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Filmda o‘quvchilarga tushunarli shaklda hujayralarning tuzilishi, turi va ularning omillari haqida hikoya qilinadi. “Hayotning boshlanishi” filmi tirik olamning rivojlanish bosqichalariga bag‘ishlanib, darslikdagi “Yerda hayotning rivojlanishi” mavzusini to‘ldirishga yaxshi yordam beradi. O‘quvchilarda milodlar va yer tarixi davrlarini, sayyorani egallab olgan organizmlar, geologik davrlarni eslab qolish doimiy ravishda qiyinchilik tug‘dirgan. Film o‘quvchilardagi bu qiyinchiliklarni bartaraf etib, yer yuzida tirik olamning rivojlanish tasvirlarini hotirasiga mustaxkamlaydi. “Organizmlarning individual rivojlanishi” mavzusida “Hayot davom etadi” filmini ko‘rish va muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Darslarda videomateriallardan to‘g‘ri va samarali foydalanish uchun ularni dars jarayonida qo‘llash uslubini bilish zarur. Videomateriallarning qo‘llanilishi nafaqat filmni ko‘rish, balki aniq ishlab chiqilgan reja asosida ishlashni talab qiladi. Dars rejasiga videomateriallarni kiritayotganda, uni ko‘rish jarayonida amalga oshiriladigan maqsad, bilim va vazifalarni aniq belgilash kerak. O‘qituvchi darsga tayyorgarlik ko‘rayotganida filmning mazmun mohiyati bilan tanishib chiqib



mavzuni yoritib beradigan ma'lumotlarni tanlab olishi kerak.

Ma'lumotlarni tanlab olayotganda quyidagi omillarni hisobga olish kerak: o'quvchilarning umumiy rivojlanishi ularning ushbu mazmunni idrok etishga tayyorligi; bolalarning qiziqishlari va xususiyatlari; film bilan ishlay bilish. videomateriallarni qo'llash jarayonida uning mazmuni va boshqa axborot manbalari o'rtaida aloqalarni o'rnatish kerak: kitob, jadval va sxemalar bilan. Noto'g'ri o'rnatilgan bog'liqlik, film tomosha qilishda o'quvchilar ishining sifatini pasaytiradi; film bilan ishlash passiv ko'rishga olib borishi kerak emas. Videomateriallardan foydalangan holda darslarda faol yondashuv talab etiladi. O'quvchi axborot manbalari bilan ishlash jarayonida faoliylik bilan jalb qilinsagina, olinayotgan ma'lumotlar u tomonidan yaxshi o'zlashtiriladi.

Filmni ko'rish jarayonida o'quvchilar uning mazmuni haqida o'yashlari, ko'rganini anglashi, olingen ma'lumotlarni xulosa va tahlil qilishi kerak. Aytib o'tilgan faoliyatlarisiz, ko'rilgan videoma'lumotlar natija olib kelmaydi.

Filmni ko'rishda o'quvchilarning faolligini oshirish uchun oldindan savollar tayyorlab qo'yish kerak va ularga javobni filmni ko'rgandan so'ng beradilar. Bu dars vaqtida o'quvchilarning diqqatini oshiradi. Ushbu usul, ayniqsa, film asosiy bilim manbai sifatida ishlatilganda, yangi bilimlarni olish darsida juda mos keladi. O'quvchilarning videomaterial bilan samarali ishlatishi uchun, uning ko'rish davomiyligi 15 daqiqadan oshmasligi kerak. Uzoqroq ko'rish bilan o'quvchilar e'tiborini yo'qotadilar va chalg'iydilar. Darsda ish samardorligini oshirish uchun o'qituvchi oldindan topshiriq yozilgan kartochkalarni tayyorlab qo'yishi mumkin. O'quvchilar esa ko'rish jarayonida ma'lumot va javoblarni daftarga qayd qilib boradilar va bu jarayon orqali mavzuni yaxshi tushunib oladilar.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Л.Ф Морозова. Учебные кинофильмы на уроках.
2. С.Д.Аюпова. Использование на уроках биологии, как средства успешного решения учебных.
3. Г.Г.Гилёва. Медиообразование и биология: первые шаги.



TUT O'SIMLIGI VA UNING DORIVORLIK XUSUSIYATI

Sharifov Ruslan Bobomurod o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash fakulteti 108-guruh talabasi
sharifovruslan@gmail.com

Ilmiy rahbar: Matkarimova Gulnaz Maqsudjanovna

Tibbiy biologiya va genetika kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Tut – morus tut oilasiga mansub bo'lib 160 ga yaqin turi bor. Quritib mayiz qilingan tutdan ichburug' kasalligini davolashda qo'llaniladi. Immum tizimiga ham ijobjiy tasir ko'rsatib, yuqumli kasalliklardan himoya qiladi

Yuz terisini va sochni parvarishlashda, qandli diabet kasalligini, avitaminoz, gipovitaminoz kasalliklarini, immum tizimi kasalliklarini va kardiologik kasalliklarni davolashda bemorga buyuriladi, ovqat rejimiga qo'yiladi.

Kalit so'zlar: Avitaminoz, gipovitaminoz, dermatit, katarkta, rezavor meva, damlama, glaukoma, vitaminlar.

Tut – morus tut oilasiga mansub bo'lib 160 ga yaqin turi bor, ammo 16 tasi yaxshi o'rganilgan, shundan 5 tasi O'zbekitonda o'stiriladi. Uning shox-shabbasi keng, yumaloq bo'lgani va bo'yi 10-15m ayrimlari 20-25m bo'lgani sabali manzarali daraxt sifatida ekiladi. Bundan tashqaari bargi tut ipak qurtining ozuqasi bo'lgani sabali ipakchilikda foydalilanadi. Mevasi yangilida iste'mol qilinadi, shinni va murabbo tayyorlanadi.



Tut mevasi tarkibi. Mevasi sersuv rezavor 80-85% suv bor. Qand miqdori yuqori 15% gacha bo'ladi. Bundan tashqaari B guruh, C, E, K, PP vitaminlarini saqlaydi. Tarkibida fosfor bo'lgani uchun aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilar qadrlaydi va homilador ayyollar uvhun bu davrni yaxshi o'tkazishlari uchun ham foydalidir.

Tutning xalq tabobatida foydalananish. Tarkibida qand miqdori ko'pligi sabali qonni ko'paytiruvchi va tozalovchi sifatida tavsiya etiladi. Buyuk tabib, olim Abu Ali ibn Sino "Nordon tut o'giz va tomoqdag'i shishlarni qaytaradi, suvi bilan og'iz chayilsa tish og'rig'i qoladi" deb aytib o'tgan. Quritib mayiz qilingan tutdan ichburug' kasalligini davolashda qo'llaniladi. Immum tizimiga ham ijobjiy tasir ko'rsatib, yuqumli kasalliklardan himoya qiladi. Soch to'kilishini oldini olishda, soch parvarishida, yuzdag'i husnbuzarlarni, dog'larni yo'qotishda undan tayyorlangan surtmalar niqoblar yaxshi samara beradi. Bargini maydalab o'simlik moyi bilan aralashitirishdan hosil bo'lgan surtmani yaralarni tez bitishida foydalilanadi. Oq tut (morus alba) mevasidan miokardiodiktrofiyani davolashda yaxshi samara bergen.

Uyqusizlik uchun. Markaziy nerv sistemasiga tinchlantiruvchi ta'sir etadi, shuning uchun ham uyqusizlikda tavsiya etadi. U stresni yengillashtirib, uylashda yordam beradi.

Bosh og'rig'ida. Tutning ildizidan bosh og'rig'i uchun damlama tayyorlanadi. Ushbu damlama



11 suvgan ildizlari solinib, 10minut qaynatiladi. Bu damlama qon bosimini odatiy holatga keltirib, tomirlarni mustahkamlaydi natijada bosh og'rig'i kamayadi.

Ozdiruvchi vosita. Mevasi takibida uglevod miqdori ko'p bo'lishiga qaramasdan, kalloriyasi past-50.4 kkal. Moddalar almashinuv jarayonini tezlashtiradi, shu sabali ortiqcha vazndan tez va oson halos bo'lish mumkin. Tut parhezini 3 kun mobaynida qo'llash orqali 2-3kg ga ozish mumkin. Tarkibida juda ko'p turli- tuman vitaminlar saqlagani uchun bolalarning o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Bundan tashqari turli xil yurak, buyrak kasalliklarini qamqli diabetning 2-toifasini, prostatit, dermatit, oshqozon va teri yaralarini katarakta, glaukomani davolashdakeng qo'llaniladi.



**BIOLOGIK TA’LIMDA O’QITISH MAZMUNI, VOSITA, METOD VA
SHAKLLARNING UYG’UNLIGI**

Yusupova Yangiljon Xajibayevna

Yangibozor tumani 6-son maktab o’qituvchisi

Telefon: +998 (95) 776 89 88

yusupovayangiljon_8988@inbox.uz

Begliyev Sanjar Reymbergenovich

Xorazm viloyati XTXQTMO

Hududiy markaz katta o’qituvchisi

Telefon: +998 (97) 452 09 03

begliyev1984@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola biologik fanlarni o’qitishda zamonaviy yondoshuvlar hamda biologik ta’limda o’qitish mazmuni, vosita, metod va shakllarning uyg’unligiv haqida.

Kalit so’zlar: zamonaviy yondoshuvlar, o’qitish mazmuni, vosita, metod, shakl, kreativ, keys-stadi topshiriqlari, nostandard test.

Ma’lumki, davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va davlatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktikaning tarixiy va mantiqiy birlikning metodologik prinsipiga muvofiq ta’lim tizimi oldiga muayyan davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo’yadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ta’lim ijtimoiy sohadagi ustuvor yo’nalish deb belgilandi, oliy ta’limni joriy etishning metodologik va nazariy asosi bo’lgan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da oliy ta’lim tizimi oldiga har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta’lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlagan va keyinchalik puxta o’zlashtirgan, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratish, jamiyat, davlat va oila oldidagi o’z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalash kabi davlat buyurtmalari qo’yilgan. Jamiyatimizda sodir bo’layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, ma’naviy-ma’rifiy o’zgarishlar, huquqiy-demokratik jamiyat qurish tamoyillari hisobga olingan holda yaratilgan “Milliy g’oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” nomli risolada ta’lim tizimi oldiga ijtimoiy buyurtmalar qo’yilgan.

Ta’lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismi ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish uchun ta’lim tarbiya jarayoniga muammoli ta’lim texnologiyasi asosida muammoli tarzdagi savol topshiriqlar, mashq masalalar ishlab chiqilishi, unda o’quvchilar tomonidan mantiqiy operatsiyalarini mustaqil bajarilishi nazarda tutilishi lozim.

Horijiy adabiyotlarda o’qitish jarayonida o’quvchilarda ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish yo’llari bayon etilgan.

Mazkur adabiyotda o’quvchilarning shaxs va kelgusida kasbiy faoliyatida ijodiy fikr yuritish muhim o’rin tutishi qayd etilgan.

Shuni qayd etish lozimki, o’quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning bosqichlariga to’liq amal qilingandagina ko’zlangan natijani olish mumkin.

Talabalarda ijodiy faoliyat tajribalarni shakllantirish uchun biologiya o’qituvchisi har bir mashg’ulotlarda ijodiy (kreativ) o’quv topshiriqlaridan foydalanish lozim. Biologiyadan foydalaniladigan ijodiy (kreativ) o’quv topshiriqlari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Qiyinglik darajasi ijodiy (kreativ) o’quv topshiriqlari

2. Keys-stadi topshiriqlari.

3. Nostandard test topshiriqlari.

Mazkur topshiriqlar o’quvchilarda ijodiy faoliyatni shakllantirish va rivojlantirishga zamin yaratadi.

Biologiya o’qituvchisi mazkur o’quv topshiriqlarni tuzishda albatta o’rganiladigan mavzu mazmunini qayta ishlari, o’quv muammolarini vujudga keltirishi, o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini yangi, kutilmagan vaziyatlarda qo’llashini e’tiborda tutishi lozim.

Mashg’ulotlar davomida o’quvchilar mazkur o’quv topshiriqlarni bajarish jarayonida



muammolarni sezgi organlari orqali idrok etishi, tasavvur qilishi, abstraksiyalashi, muammoni mantiqan mushohada qilishi, aqliy operatsiyalar tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasash orqali muammoning yechimini topishi nazarda tutiladi.

Ta’lim mazmunining to’rtinchı tarkibiy qismi qadriyatlar tizimini tarkib toptirish bosqichlaridan avval qadriyatlarga aniqlik kiritish lozim.

Biologik fanlar ta’lim mazmunidagi qadriyatlar ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim bilan tarbiyaning uzviyigini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Teng, P. S. 2007a. Accelerating the renaissancein BIOS cienceyen trepre neurship – Part 1. Asia Pacific Biotech, 11(16): 1138–1145.
2. J.O.Tolipov . Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar. –T. 2011 yil.
3. J.O.Tolipova, G`ofurov A.T Biologiya o`qitish metodikasi. –T. 2012 yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 22-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000